

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li

THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA:
THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS 9-13

Xurramov Xamid Bobokul o'g'li

AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN? 14-18

Zikirova Maxprat Soliyevna

HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI
VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI 19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Амбарцумян Анастас Алексеевич

СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ
ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА 26-38

Rajabov Alibek Xushnudbekovich

ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI 39-46

Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna

OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES
IN TEXTILE ENTERPRISES 47-52

Shixiyev Raxim Muhammedovich

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH
ISTIQBOLLARI 53-60

Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK
VA STATISTIK TAHLILI 61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Navro'zova Gulchehra Nigmatovna

BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI 67-70

Yuldasheva Diloram Yuldashevna

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
DOLZARB MASALALARI 71-74

Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI 75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Ayimbetova Zamira

BADIIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH
VA TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI 81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i> ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI	88-92
<i>Петросянц Эрнст</i> СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i> NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i> ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Firuz Muxitdinova</i> JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i> NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i> IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i> FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i> ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING QONUN IJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i> JINOYATLARNI OLDINI OLIISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i> NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i> VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185
--	---------

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA‘SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025
Accepted: 30 August 2025
Published: 15 September 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF THE INSTITUTION OF MEDIATION AS AN ALTERNATIVE METHOD OF DISPUTE RESOLUTION

Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi,

Lecturer, Department of Legal Sciences,
M.S. Vosiqova Academic Lyceum under
Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines alternative dispute resolution methods, with a particular focus on the legal nature and practical application of mediation. It highlights the main advantages of mediation, such as confidentiality, flexibility, party control, and cost-effectiveness. A comparative analysis is also provided between mediation and other ADR mechanisms, including negotiation, conciliation, neutral evaluation, and arbitration. Special attention is paid to the development of mediation in Uzbekistan, the main provisions of national legislation, and the rights and obligations of mediators and parties involved.

Keywords: mediation, alternative dispute resolution, arbitration, negotiation, conciliation, neutral evaluation.

NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI

Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi,

TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning
Huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada nizolarni hal qilishning muqobil usullari, xususan mediatsiya institutining huquqiy mohiyati va amaliy qo'llanishi yoritilgan. Unda mediatsiyaning afzalliklari – maxfiylik, moslashuvchanlik, taraflarning nazorat imkoniyati va xarajatlarni minimallashtirish tahlil qilingan. Shuningdek, muzokara, murosaga keltirish, neytral baholash va arbitraj kabi boshqa muqobil usullar bilan qiyosiy tahlil olib borilgan. O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining rivojlanishi, qonunchilikdagi asosiy normalar hamda mediator va taraflarning huquq va majburiyatlari alohida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: mediatsiya, muqobil nizolarni hal qilish, arbitraj, muzokara, murosaga keltirish, neytral baholash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N18>

Nizolarni muqobil hal qilishning zamonaviy shakllari 1970-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida vujudga kelgan bo'lib, bunga sud tizimidan norozilikning kuchayishi sabab bo'lgan. Sudgacha bo'lgan ma'lumotlarning oshkor etilishi va yuqori advokat to'lovlari, uzoq davom etgan sud jarayonlari, noaniq va potensial qimmatga tushadigan qarorlar, masalan, fuqarolik hay'ati sudlari va jarima to'lovlari nizolarni hal qilishning muqobil usullarini izlashga undadi. Ushbu rivojlanishning muhim bosqichi 1976-yil aprel oyida Minnesota shtatining Sent-Pol shahrida bo'lib o'tgan "Pound konferensiyasi" sabab bo'ldi. Ushbu konferensiya Qo'shma Shtatlardagi adliya tizimining kelajagi haqida fikr yuritgan olimlar, amaliyotchilar va siyosatchilarni birlashtirdi [1, B. 155].

Arbitraj nizolarni muqobil hal qilish usullarining an'anaviy shakllaridan biri bo'lib, xalqaro B2B tijorat nizolari hal qilishda katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli, nizolarni muqobil hal qilishning zamonaviy shakllarining tez sur'atlarda rivojlanib borishi, birinchi navbatda, uchinchi tomonning aralashuvi orqali nizolarni hal qilish ya'ni mediatsiyada o'z aksini topdi. Mediatsiya AQShda, xususan, 1970-1980-yillarda rivojlangan bo'lib, Amerika adliya tizimining tamal toshi deb hisoblash mumkin. Taxminan 10-20 yillardan keyin Yevropa va boshqa davlatlarda ham mediatsiya instituti tez suratlarda rivojlana bordi. Lekin Yevropa davlatlarida mediatsiya instituti AQSH da rivojlanganchalik rivoj topmadi [2, B. 59].

Hozirda nizolarni muqobil hal qilish usullari landshafti juda tabaqalashtirilgan va ixtisoslashgan. Qurilish nizolari bo'yicha sudgacha bo'lgan jarayonlari va Med/Arb kabi gibrid protseduralar kabi maxsus, har bir holat bo'yicha protseduralar tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

"Munozara" atamasi odatda ma'lum bir masalalar to'plami bilan bog'liq bo'lgan va avj olgan nizoni bildiradi. Mojaro atamasi umumiyroq bo'lib, ikki va undan ortiq odamlar o'rtasida vujudga keladigan keskinlik holatini anglatishi mumkin. Biroq, kundalik tilda bu ikki atama bir-birining o'rnida ishlatiladi. Shunga ko'ra, mediatsiyada "nizo" va "munozara" atamalari bir-birining o'rnida qo'llaniladi va umumiy qabul qilingan tushunchalarga mos keladi.

Nizolarni hal qilishning muqobil usullari bir qancha afzalliklarga ega bo'lib u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Maxfiylik

Moslashuvchanlik

Nazorat

Xarajatlarni minimallashtirish

Maxfiylik. Nizolarni muqobil hal qilish jarayonlari, sud jarayonidan farqli o'laroq, xususiy va maxfiydir. Aksariyat sud jarayonlari jamoatchilik uchun ochiq, demak, har kim, shu jumladan ommaviy axborot vositalari ham sud jarayonini kuzatishi va u haqida ommaga hisobot berishi mumkin bo'ladi. Bundan farqli o'laroq, nizolarni muqobil hal qilish jarayonlari ishtirokchilari mediatsiya paytida nima sodir bo'lishi haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashlari kerak. Bu talab nizo tomonlariga o'zlari xohlagan narsani keyinchalik ularga qarshi ishlatilishi mumkinligidan qo'rqmasdan aytish uchun ancha erkinlik beradi [3].

Bundan tashqari, konfidensiallik prinsipi shuni anglatadiki, nizolarni muqobil hal qilish jarayonida aniqlangan ma'lumotlardan keyingi sud muhokamasida dalil sifatida foydalanish mumkin emas. Nizolarni muqobil hal qilish maxfiyligi nizo tomonlariga kimdir ular haqida fikr bildirishi yoki salbiy fikr bildirishidan qo'rqmasdan nizoni erkinroq usulda muhokama qilish imkonini beradi.

Moslashuvchanlik. Nizolarni muqobil hal qilish jarayonlari protsess tuzilishining har xil turlarini taklif etadi. Shu bilan birga, nizolarni muqobil hal qilishning shaxsiy tabiati har bir nizolarni muqobil hal qilish jarayonini taraflarga o'z ehtiyojlari asosida moslashtirish imkonini beradi. Masalan, nizolarni muqobil hal qilish jarayoniga qarab, taraflar quyidagi tartiblarni o'z xohishlariga ko'ra tanlash imkoniga ega bo'ladilar. Bular quyidagilardan iborat:

Vaqt

Joy

Rasmiylik darajasi

Jarayon narxi va boshqa protsessual jihatlar

Sud jarayoni odatda davom etishi kerak bo'lgan qat'iy qoidalariga ega va agar biror narsani o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, sudyaning ruxsatini olishingiz kerak. Bundan farqli o'laroq, mediatsiya jarayoni dalillarning qat'iy qonuniy qoidalariga ham, o'z ishini taqdim etishning belgilangan tartiblariga ham bog'liq emas.

Nazorat. Ma'lumki, sud jarayonida, eng faol odamlar sudya va advokatlar bo'ladi. Taraflar esa jarayonda passiv ishtirok etadi, odatda taraflar advokatining maslahatlariga rioya qilgan holda sudda ishtirok etadi hamda sudya tomonidan chiqarilgan qarorga qat'iy rioya qilishga majbur bo'ladi. Nizolarni muqobil hal qilish usullarida esa taraflar nizoni qanday hal qilishni o'zlari hal qiladilar hamda erkin bo'ladilar.

Ma'lumki, sudda yo g'alaba qozoniladi va xohlagan narsaga erishiladi yoki yutqaziladi va sudyaning qaroriga sozsiz rozi bo'lishga olib keladi. Nizolarni muqobil hal etish usullarida esa turli jarayonlar va turli xil natijalarga olib keladi. Masalan, mediatsiyada nizoning natijasini nazorat qilish imkoni va o'z ehtiyojlaringizdan kelib chiqadigan ijobiy yechim topish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bunday kelishuvlar, odatda, sudya tomonidan chiqarilgan, shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarga qaraganda ancha ishonchli va mustahkamroqdir.

Mediatsiya, shuningdek, boshqa tomon bilan munosabatlarni davom ettirish va obro' e'tibor va xayrixohlikni saqlab qolish imkonini beradi. Masalan, kompaniya o'z mijozlari yoki investorlari bilan ishonchli munosabatlarni saqlab qolishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu jarayonda nizoni hal etish mahorati shakllanadi hamda kelajakdagi nizolarning oldini olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xarajatlarni tejash. Yuridik maslahat, advokat xizmati va sud xarajatlari odatda yuqori bo'ladi. Shuningdek, sud ishlarining uzoq davom etishi ham xarajatlarning oshib ketishiga olib keladi. Nizolarni muqobil hal etish usullarining afzallik tarafi shundaki, u ko'p hollarda sud jarayoniga qaraganda arzonroqdir.

Nizolarni muqobil hal etish usullari jarayoni qanchalik rasmiy va qonuniy asosga ega bo'lsa, u shunchalik qimmatga tushadi (garchi u odatda sudga murojaat qilishdan ko'ra arzonroq bo'lsa ham). Masalan, Arbitraj rasmiy hamda qonuniy asosga ega bo'lgan nizolarni muqobil hal etish usullaridan biri hisoblanadi. Arbitraj odatda mediatsiyaga qaraganda qimmatroq bo'lib, u yuqori darajadagi moslashuvchanlik va norasmiyligi bilan ajralib turadi. Mediatsiya jarayonida nizoni bir necha hafta ichida hal qilish mumkin (mediatsiyaga tayyorgarlik va mediatsiya jarayonining o'zi), sudda ish yuritish esa bir necha yil davom etishi mumkin.

Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nizolarni muqobil hal etish usullari, jumladan, mediatsiyadan foydalanish taraflarni sud jarayonidagi umumiy xarajatlarining 50 dan 97 foizigacha tejash imkonini beradi. Mediatsiya orqali erishilgan kelishuvlarga rioya qilish holatlari esa yuqori, odatda 50 dan 85 foizgacha. Odatda, mediatsiyadan qoniqishning yuqori darajasi mavjud bo'lib, ushbu qoniqish barqaror kelishuv bitimlariga olib keladi.

Ma'lumki, nizolarni muqobil hal etish usullari bir qancha bo'lib, quyida ushbu usullarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Muzokara usuli nizolarni muqobil hal etish usullaridan biri hisoblanadi.

Nizoni hal etishning muzokara usuli necha yillardan beri qo'llanilib kelayotgan usullardan biri hisoblanib, deyarli ko'pchilik nizolarni hal etishda ushbu usuldan foydalanib kelinadi. Jumladan, ish beruvchi va xodim o'rtasida maoshni oshirish to'g'risida, potensial

biznes hamkorlar o'rtasida shartnoma tuzish, urishayotgan mamlakatlar o'rtasida o't ochishni to'xtatish bo'yicha muzokaralar bo'lishi mumkin.

Muzokara o'tkazuvchi taraf o'z manfaatlari yuzasidan ishni hal etishni xohlaydi. Istalgan masala yuzasidan taraflar nizoni hal etish uchun muzokara o'tkazishlari mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri muzokaralar quyidagi harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin: Taraflar bir-birini tinglashi, bahsli masalalarga oydinlik kiritish, taraflarning manfaatlarini bilishi, har bir inson uchun nima muhimligini aniqlash kelishuvga intilish, har bir masalani hal qilish variantlarini ishlab chiqish, agar kelishuvga erishilmasa, nima qilish kerakligini ko'rib chiqish.

Murosaga keltirish (Conciliation). Murosaga keltirish hamda mediatsiya atamalari bir biriga o'xshash bo'lib, ko'pincha bir-birining o'rnida qo'llaniladi. Xalqaro tijoratda murosaga keltirish to'g'risidagi UNSITRAL namunaviy qonuni ushbu masalani atroflicha ko'rib chiqadi. U asosan murosaga keltirishni muzokaralar o'tkazishdan farqli deb hisoblaydi, chunki u taraflarga o'zlarining nizolarini hal qilishga xolisona va mustaqil yordam beradigan uchinchi tarafni o'z ichiga oladi. U arbitrajdan farq qiladi, chunki u majburiy emas. Biroq UNSITRAL nuqtai nazaridan garchi u o'zining: Joriy etish uchun qo'llanmasida amaliyotchilar neytral uchinchi tarafning ishtiroki miqdoriga qarab ikkalasini ajratib olishlari mumkinligini e'tirof etsa-da, murosaga keltirish mediatsiyadan sezilarli darajada farq qilmaydi. An'anaga ko'ra, mediatorlar ko'proq ko'maklashuvchi, murosaga keltiruvchilar esa, ko'proq yo'naltiruvchi sifatida ko'rib kelingan [4, B.39].

Neytral baholash. Neytral baholash muzokara jarayoni emas. Aksincha, bu nizoni hal qilishning eng yaxshi yo'li haqida fikr bildiruvchi mustaqil uchinchi tomon ekspertini o'z ichiga oladi. NADRAC neytral baholash "da'vo yoki sud jarayoni boshlanishidan oldin sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonligini" e'tirof etadi. Ba'zan professional maslahatchi, masalan, advokat yoki buxgalter sizga neytral baholashdan foydalanishni taklif qilishi mumkin. Sudlar ba'zan odamlarni neytral baholashga yo'naltiradi.

Neytral baholash quyidagilarni nazarda tutadi:

Ishtirokchilar o'z nuqtai nazarlari va faktlarini mustaqil shaxsga (baholovchiga) taqdim etadilar.

Baholovchi nizoning asosiy masalalari va uni hal qilishning eng samarali usuli bo'yicha fikrni shakllantiradi.

Baholovchi ko'pincha yuridik ma'lumotga ega va ma'lum bir sohada tajribaga ega bo'lishi mumkin.

Neytral baholash maxfiy bo'lishi mumkin va agar ishtirokchilar o'zlari olib keladigan hujjatlar sonini cheklashga harakat qilsalar yaxshi ishlaydi.

Bugungi kunda neytral baholash ham nizolarni hal etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu ishtirokchilarga sud yoki sud tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masalalar sonini kamaytirishga yordam beradi. Neytral baholash jarayoni tomonlardan baholovchi bilan uchrashishni talab qilmaydi. Buning o'rniga, ishtirokchilar baholovchiga nizoni ularning nuqtai nazaridan tushuntirib beradigan hujjatlarni taqdim etishlari mumkin. Keyin baholovchi ushbu hujjatlar asosida barcha ishtirokchilarga yozma tavsiyalar beradi.

Baholovchining roli yarashtiruvchining roliga o'xshaydi, lekin jarayon ko'proq rasmiy va qonuniy asosga ega. Baholovchi taraflar yoki ularning advokatlarining "qisqa tanishuvlari" dan iborat bo'lgan nisbatan norasmiy jarayonni olib boradi va tomonlar rioya qilishi yoki

bajarmasligi mumkin bo'lgan majburiy bo'lmagan tavsiyalarni taklif qiladi. Baholovchi quyidagilardan birini yoki barchasini bajarishi mumkin:

Nizoning barcha tomonlarini tinglaydi va yetishmayotgan ma'lumotlarni aniqlaydi.

Nizo tomonlariga sud yoki tribunal qanday qaror qabul qilishi mumkinligi haqida fikr beradi.

Tegishli sohadagi mutaxassis nizoni hal qilish uchun nimani tavsiya qilishi mumkinligi haqida fikr beradi.

Tomonlar o'rtasida kelishuv bitimi bo'yicha muzokaralar olib borish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, arbitraj xususiy sudlov tizimi bo'lib, bunda nizolashuvchi taraflar o'z nizolarini har qanday sud tizimidan tashqarida hal qilishga qaror qilishadi. Ko'p hollarda arbitraj jarayoni milliy sudda ijro etish mumkin bo'lgan arbitraj qarorini chiqarishga asos bo'ladigan yakuniy va majburiy qaror chiqarishni o'z ichiga oladi. Qaror qabul qiluvchilar, ya'ni arbitrlar odatda bir yoki uch kishidan iborat tarkibda, taraflar tomonidan umumiy tarzda tanlanadi. Shuningdek, taraflar arbitraj jarayoni xalqaro arbitraj instituti tomonidan olib borilishi yoki hech qanday muassasa ishtirokini nazarda tutmaydigan ad hoc tarzida bo'lib o'tishini ham hal qilishadi. Qo'llaniladigan qoidalar arbitraj instituti qoidalari yoki taraflar tomonidan tanlangan boshqa qoidalar bolishi mumkin. Arbitrlar va qoidalarni tanlash bilan birga, taraflar arbitraj muhokamasining joyi va tilini tanlay oladilar.

Shunday qilib arbitraj taraflarga katta mustaqillik va nizolarni hal etishda qo'llaniladigan jarayon ustidan nazoratni taqdim etadi. Bu ayniqsa xalqaro tijorat arbitrajida muhim, chunki taraflar boshqa taraf sud tizimining yurisdiksiyasiga subyekt bo'lishini xohlashmaydi. Har bir taraf boshqa tarafning "milliy sudi ustunligidan" xavfsiraydi. Arbitraj yanada betarafroq yurisdiksiyani taklif etadi, unda har bir taraf adolatli jarayon bo'lib o'tishiga ishonadi. Bundan tashqari, nizolarni hal qilish jarayonini taraflarning manfaatlariga muvofiqlashtira olishning moslashuvchanligi va nizo predmeti yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lgan arbitrlarni tanlash imkoniyati arbitrajni ayniqsa jozibador qiladi.

Bugungi kunda tijorat arbitraji ko'plab xalqaro tijorat bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal etishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hozirgi kunda, mediatsiya zamonaviy tisdagi nizolarni muqobil hal etish usullarining eng mashhur shaklidir. Asosan, bu neytral uchinchi tomon vositachiligida olib boriladigan muzokaralardir. Mediator hisob-kitob variantlarini, xususan, aloqa usullarini o'rganish uchun turli ko'nikmalar va usullardan foydalanadi. Mediatsiya barcha turdagi nizolar uchun qo'llaniladi.

Mediatsiya turli bosqichlardan iborat bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: mediatsiyaning ochilish bayonoti, mediatsiyada muhokama qilinayotgan masalalar, tomonlar nizo yuzasidan bayonotlari, tomonlarning manfaatlarini o'rganish, mumkin bo'lgan kelishuv variantlarini aniqlash va nihoyat kelishuv muzokaralari. Biroq, ba'zi mediatsiya jarayonlari bu kabi "bosqichlar jadvali"ga rioya qilmagan holda o'tkaziladi. Qoidaga ko'ra, mediator taraflar bilan ular mediatsiyaning qaysi shakliga ega bo'lishni va qaysi shaklga amal qilish kerakligini oldindan muhokama qiladi. Mediatsiya jarayonida odatda ikki turdagi huquqiy munosabatlar yuzaga keladi: taraflar o'rtasida mediatsiya bitimi shaklida (bu shartnomaning nizoni keltirib chiqargan bandi bo'lishi mumkin) va taraflar va mediator o'rtasida "mediator bilan tuzilgan shartnoma", ya'ni xizmatlar ko'rsatish shartnomasi.

Mamlakatimizda mediatsiya kundan kun rivojlanib bormoqda. Qolaversa, mediatsiya O'zbekistonda yangi institut bo'lib, jamiyatimiz ahli uning afzalliklaridan hali yetarlicha xabardor emas. Bu holat mediatsiya hodisasini chuqur targ'ib qilishni talab qiladi.

Shunga ko'ra mediatsiya tushunchasiga nisbatan quyidagi ta'rifni berish mumkin: mediatsiya ikki qarama-qarshi tomon o'rtasidagi nizo yoki nizoni hal qilishning eng to'g'ri yechimini topishdan boshqa hech narsadan manfaatdor bo'lmagan, "xolis shaxs", ya'ni mediator ishtirokidagi muzokaralar tushunchasini qamrab oladi. Mediatsiya nizolarni yangi noan'anaviy yondashuv asosida hal etishning muqobil usuli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida keltirilgan ta'rifga ko'ra mediatsiya bu – nizoni mediator yordamida ularning ixtiyoriy roziligi asosida taraflar o'zaro maqbul qarorga keladigan tarzda hal etish usulidir. Biroq bu ta'rif mediatsiya xolis ekspert rahbarligida muayyan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladigan jarayon ekanligini inkor etmaydi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar, jumladan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq nizolar, shuningdek yakka mehnat va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiya usulini qo'llashga doir munosabatlarga, agar qonunda boshqacha belgilangan bo'lmasa, ushbu qoidalar tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun, mediatsiyada qatnashmayotgan uchinchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga yoki jamoat manfaatlariga ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan nizolarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Mediatorning vazifasi nizolashayotgan tomonlarga o'zaro manfaatli shartlarda o'z kelishmovchiliklarini mustaqil ravishda hal qilish imkoniyatini topishga yordam berishdir. Mediator dalillarni tekshirmaydi va tomonlarning da'volarining qonuniyligini baholamaydi. Xolis uchinchi shaxs bo'lgan mediator sudya ham, hakam ham emas va yuzaga keladigan nizolar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilmaydi.

Mediatsiya jarayonida quyidagi shaxslar uning ishtirokchilari sanaladi.

Taraflar va mediator mediatsiya ishtirokchilari bo'lib, jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham mediatsiya taraflari bo'lishi mumkin.

Mediatsiya ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida o'tkazilishi mumkin va buni bir yoki bir nechta mediator bajarishi mumkin. Shuningdek, tomonlar mediatsiyada to'g'ridan-to'g'ri yoki o'z vakillari orqali qatnashadilar.

Mediatsiya jarayonida ishtirok etuvchi tomonlar o'z huquq va majburiyatlariga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- mediatorni o'z ixtiyori bilan tanlash;
- mediatsiyadan voz kechish;
- mediatsiyaning istalgan bosqichida ishtirok etmaslikni tanlash;
- mediatsiya tartibini qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsan yoki vakillari orqali bajarishga huquqqa ega bo'lish.

Shuningdek, mediatsiya tomonlari o'rtasida tuzilgan kelishuvlarni belgilangan tartib va muddatlarda bajarishlari talab etiladi. Mediatsiya ishtirokchilari qonunchilik doirasida boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularga qo'shimcha majburiyatlar yuklatilishi mumkin.

Mediatorning huquqlari quyidagilardan iboratdir:

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish chog'ida bir vaqtning o'zida ham taraflarning barchasi bilan, ham taraflarning har biri bilan alohida-alohida uchrashuvlar o'tkazishga, ularga nizoni hal etishga doir og'zaki va yozma tavsiyalar berishga;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishi munosabati bilan sarflagan xarajatlarining o'rni qoplanishini talab qilishga haqli.

Mediator majburiyatlari:

mediatsiya boshlanguniga qadar mediatsiya taraflariga mediatsiyaning maqsadini, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish chog'ida faqat mediatsiya taraflarining roziligi bilan harakat qilishi;

nizo yuzasidan o'zaro maqbul kelishuvga erishishga taraflarni ishontirishning qonuniy vositalari va usullaridan foydalanishi;

o'zining mustaqilligi va xolisligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud bo'lsa yoki yuzaga kelsa, bu haqda taraflarga ma'lum qilishi shart [5].

Shuningdek mediator quyidagi holda, ya'ni taraflar oldida tartib mediatsiya taomilni amalga oshirishi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin:

Mediatsiya jarayonini boshlash va bosqichma-bosqich amalga oshirish, agar tegishli tashabbus (istak) mavjud bo'lsa, muayyan tamoyillarga asoslanadi. Qonunda mediatsiyaning quyidagi muhim tamoyillari belgilangan: ixtiyoriylik, maxfiylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi. Quyida ushbu tamoyillarning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

Ixtiyoriylik tamoyilining ahamiyati shundan iboratki, agar mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuvda ifodalangan tomonlarning o'zaro ixtiyoriy istagi mavjud bo'lsa, mediatsiya qo'llaniladi. Mediatsiya taraflari istalgan bosqichda mediatsiyadan foydalanishni rad etishga haqli. Tomonlar o'zaro maqbul kelishuvni muhokama qilish uchun masalalarni tanlashda erkindirlar. Mediatsiya jarayonida murosa qilish yoki qaror qabul qilishga majburlash taqiqlanadi.

Maxfiylik tamoyili mediatorning kasbiy majburiyatlaridan kelib chiqadi. Mediatsiyaning maxfiyligi uning sud muhokamasidan muhim afzalliklaridan biridir. Ushbu tamoyilning ma'nosi shundan iboratki, mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni mediatsiya tarafining, uning vorisi yoki ularni taqdim etgan vakilining yozma rozilgisiz oshkor qilishga haqli emas. Mediatsiya ishtirokchilari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mediatsiya jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lgan ishlar bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilinishi hamda ulardan mediatsiyaga oid ma'lumotlarni olishni so'rab olinishi mumkin emas. Mediatsiya jarayonini boshlashdan oldin mediator tomonlarni maxfiylik tamoyili to'g'risida ogohlantirishi kerak. Mediatsiyaning maxfiyligi tamoyiliga jarayonning barcha bosqichlarida, boshidan oxirigacha amal qilinadi. Ushbu tamoyil mediatsiyaning boshlang'ich va yakuniy nuqtalarini aniq belgilashga ham ta'sir qiladi.

Mediatsiya tartibi mediatsiya shartnomasi shartlariga bir tomonlama ta'sir qilish bundan mustasno, amalga oshirilishi kerak. Mediatsiya taraflarning hamkorligi asosida nizoning o'zaro maqbul yechimiga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Mediatsiya taraflari mediatorni tanlashda, mediatsiya tartib-taomilini o'tkazish tartibi, mediatsiya tartib-taomili bo'yicha o'z nuqtai nazari, ushbu nuqtai nazarni himoya qilish usullari va vositalari, axborot

olish, o'zaro qabul qilinishini baholashda teng huquqlardan foydalanadilar va teng javobgar bo'ladilar.

Mediator mediatsiya jarayonida mustaqildir. Mediatsiya jarayonida mediatorning faoliyatiga aralashishga ruxsat berilmaydi. Mediator adolatli bo'lishi, mediatsiya jarayonini tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda olib borishi va ularning teng huquqli ishtirokini ta'minlashi, shuningdek, tomonlarning majburiyatlarini bajarishi va huquqlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishi lozim. Agar mediatorning mustaqilligi va xolisligiga xalaqit beradigan holatlar yuzaga kelsa, u bu haqida tomonlarni ogohlantirishi va mediatsiyani davom ettirishdan bosh tortishi mumkin.

Mediatsiyani qo'llashga oid kelishuv, shartnoma tarkibidagi shart sifatida yoki alohida yozma kelishuv shaklida tuziladi. Ushbu kelishuvda tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha yoki ma'lum nizolar mediatsiya yo'li bilan hal etilishi kerakligi haqida qoidalar kiritilishi lozim.

Kelishuvda nizoning mazmuni, mediatsiya jarayonining tartibi, ushbu jarayon bilan bog'liq xarajatlarni tomonlar qanday taqsimlashi va mediatsiya o'tkazilish muddatlari kabi ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.

Shuningdek, qonunda ko'rsatilgan hollarda, vakolatli davlat organi ishni ko'rib chiqishni to'xtatib, mediatsiya jarayonini o'tkazish uchun maxsus muddat belgilashi mumkin. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida mediatsiya tartib-taomili amalga oshirilgan taqdirda, uni amalga oshirish davrida ijro ishini yuritish to'xtatib turiladi.

Xorijiy tajriba va o'rnatilgan qoidalarni tahlil qilish asosida mediatsiya jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin.

Kirish;

Qo'shma majlis (sessiya);

Tomonlar bilan alohida uchrashuvlar (suhbatlar);

Qo'shma majlisni davom ettirish;

muzokaralar;

Yakuniy mediatsiya kelishuvni imzolash.

Mediatsiya bilan tanishish bosqichida mediator taraflar bilan salomlashadi, mediatsiya usulini tanlaydi va roziligi uchun ularga minnatdorchilik bildiradi; taraflarga mediatsiyaning mohiyatini hamda mediatorning roli va maqomini tushuntiradi; ishtirokchilarni hurmat qiladi, ularga xushmuomalalik va samimiy madaniyat bilan munosabatda bo'ladi, muzokaralarning maxfiyligini tushuntiradi va shartnomani imzolaydi; vositachining o'zi maxfiylik talablariga qat'iy rioya qilishini ta'kidlab, tomonlarning ishonchini qozonishga intiladi.

Mediator o'zining kirish nutqida, shuningdek, mediatsiya ishtirokchilariga do'stona, kamtarin, bosiq ovozda va yumshoq ohangda (intonatsiya) o'z vakolatlarini e'lon qilgan va tomonlarning vakolatlarini belgilagan holda ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, shuningdek, tomonlarning mediatsiya davrida vaqt chegaralanmaganligi va boshqa ishlar (tashvishlar) bilan band emasligini aniqlash muhim; kursi atrofida o'tirganlarning ilgari mediatsiya jarayonlarida ishtirok etish tajribasi bor yoki yo'qligini aniqlash kerak.

Mediator tomonlarga mediatsiya va sud muhokamasi yoki arbitraj o'rtasidagi farqni ta'kidlashi kerak. Mediatsiya jarayonida tomonlarga oqilona va o'zaro manfaatli yechimga erishish uchun birgalikda ishlash, hamkorlik qilish muhimligi tushuntiriladi. Tomonlarga tushuntirilgan va ular tomonidan tasdiqlangan talablar yozma ravishda amalga oshirilishi

kerak. Tomonlar, shuningdek, mediatsiya jarayoni ikkala tomon uchun ham adolatli bo'lgan konsensus yechimiga erishishni maqsad qilganligini eslatib o'tish kerak. Shuni ham ta'kidlash joizki, mediator sudya emas, balki taraflar uchun o'zaro maqbul qarorga kelishda xolis vositachi hisoblanadi. Mediator taraflarni teng deb bilishi va birinchi so'zlash huquqini qur'a bo'yicha belgilashi maqsadga muvofiqdir. Bu ishtirokchilarning unga bo'lgan hurmati va ishonchini oshiradi.

Birgalikda sessiya bosqichi. Mediator bu bosqichni kamtarlik bilan va ehtiyotkorlik bilan, yumshoq ovoz bilan boshlaydi, bundan keyin g'alaba qozonish va tomonlarning ishonchini mustahkamlash yo'lidan boradi. Neytral pozitsiyada bo'lgan holda, vositachi tomonlarga ochiq savollarni berishi va ularning xohish- istaklari, qarashlari (pozitsiyalari) va ehtiyojlarini aniqlashga harakat qilishi kerak. Ikki tomon o'rtasidagi ziddiyatning asl sabablarini, muammoning mazmunini, asl sababini aniqlashga harakat qilish kerak.

Tomonlar bilan individual uchrashuvlar bosqichi. Mediatsiyada ishtirok etayotgan har bir tomon bilan individual suhbatlar o'tkazish muhimdir. Buning sababi shundaki, nizolashayotgan tomonlar bir-birlari bilan gaplasha olmasliklari, o'zlarining eng chuqur fikrlarini mediatorga yakka tartibda bildirishlari mumkin.

Qo'shma majlisning navbatdagi bosqichi (davomi). Bu bosqichda mediator yakka suhbatlar jarayonida tomonlardan olingan ma'lumotlarni umumlashtiradi va tomonlarni hamkorlikka chaqirgan holda muzokaralarni davom ettiradi. Shu bilan birga, u tomonlarning fikrlarini ularning manfaatlariga aylantirishga intiladi. Albatta, mediatsiyaning har bir ishtirokchisi o'z manfaatlariga ega bo'ladi. Ushbu qiziqishlarni tushunish maqsadida mediator muammoning yechimini topish uchun "aqliy hujum" tashkil qilishi mumkin. Shuningdek, turli yechimlar muhokama qilinish mumkin. Bundan tashqari, har bir variantni tahlil qilish va baholash, uning ijobiy va salbiy tomonlarini tushuntirish tavsiya etiladi. Bu bosqichda tomonlarning bir-biri bilan gaplashishi, fikr almashishi, savollar berishi uchun imkoniyat yaratish zarur.

Muzokaralar bosqichi. Tashkil etish, o'tkazish va muzokaralar olib borish har qanday mediatsiya jarayonining markaziy va juda mas'uliyatli qismidir. Muzokaralar davomida nizolashayotgan tomonlar o'z pozitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri maslahatlashuvlar orqali shakllantirishlari va vositachi orqali kelishib olishlari mumkin bo'ladi (iloji boricha o'z yondashuvlarini solishtirish va uyg'unlashtirishga harakat qilish). Tomonlar o'z fikrlarini bildirish va asoslash uchun shaxsiy vakillar, advokatlar yoki maslahatchilar xizmatlaridan ham foydalanishlari mumkin.

Muzokaralar jarayoni mediatsiyaning juda muhim bosqichi bo'lib, bu har ikki tomon uchun ham o'z nuqtai nazarini, vaziyat bo'yicha fikrlarini bildirish, o'z fikrini taqdim etish uchun imkoniyatidir. Har bir tarafga o'z fikrini bildirish uchun so'z beriladi. Mediator ularni diqqat bilan tinglaydi, agar kerak bo'lsa, o'zi uchun tegishli eslatmalarni amalga oshirishi mumkin.

Tomonlarning fikrlarini (pozitsiyalarini) taqdim etayotganda mediator o'z fikrini bildirmasligi, voqealarga munosabat bildirmasligi, ularga baho bermasligi, yakuniy fikrlarni qo'shmasligi kerak.

Muzokaralar chog'ida tomonlar o'zlarining talab va takliflarini muhokamaga qo'yishlari, ushbu masala bo'yicha dalil va asoslar keltirishlari mumkin bo'ladi.

Mediator tomonlarga har bir taklifning ijobiy va salbiy tomonlarini tushuntirib, muhokamani davom ettirishi zarurdir.

Mediator, shuningdek, tomonlarning pozitsiyasini ularning manfaatlariga qaratadi va o'zaro maqbul (foydali) yechimga erishilgunga qadar muzokaralarni davom ettiradi. Agar jarayonda ijobiy kelishuvga erishilmasa, ya'ni vaziyat to'xtab qolsa, bu haqda tegishli rasmiyatchiliklarga rioya qilgan holda e'lon qilinadi.

Mediatsiya jarayonida mediator mediatsiyadan kelib chiqadigan asosiy manfaatni aniqlashga intiladi, bu esa tomonlarning har biri uchun muhimdir. Tomonlarning takliflarini aniqlash, muhokama qilish ijobiy samara beradi. Ularning hamkorligi asosida muammoning yechimini topish, bir-biriga qanday va qay darajada yon berishlari mumkinligini aniqlash kerak. Shuningdek, ularning bir-birini tushunish istagini qo'llab-quvvatlash kerak.

Mediatsiya kelishuvi. Ushbu bosqichda muzokaralar, suhbatlar va muhokamalarda ma'lum bo'lgan barcha narsalar (barcha tafsilotlarigacha) yaxlit zanjirda tartibga solingan tahlillar asosida umumlashtiriladi. O'zaro maqbul mediatsiya shartnomasi matni birgalikda ishlab chiqiladi. Uning har bir bandi tomonlar bilan kelishilgan bo'lishi talab etiladi. Bitim neytral, xolis, sodda tilda bayon etilgan bo'lishi kerak. Matn tili, bayon qilish usuli tomonlarga tushunarli bo'lishiga ishonch hosil qilish kerak. Yakuniy kelishuv matni ishtirokchilarga o'qib eshittiriladi. Mediatsiya shartnomasi taraflar tomonidan imzolanadi. Mediator tomonlarni maqbul kelishuvga erishganlari bilan tabriklaydi. Bu ular o'rtasidagi do'stlik rishtalari saqlanib qolgani, hamkorlik bundan buyon ham davom etishidan xursand ekanliklarini ko'rsatadi.

Mediatsiya zamonaviy huquqiy tizimlarda nizolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida tobora muhim o'rin egallab bormoqda. U nafaqat sud tizimining yukini kamaytiradi, balki taraflarning manfaatlarini hisobga olgan holda, ularni ijobiy natijaga erishishga yo'naltiradi. O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining huquqiy asoslari shakllantirilgan bo'lib, uning amaliy qo'llanilishi asta-sekin kengaymoqda. Shu bois mediatsiya institutini yanada rivojlantirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatida mediatsiya tamoyillarini targ'ib qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Масадиков Ш.М. Проблемы правового регулирования медиации. Монография. – Ташкент: ТГЮУ, 2014. – 155 с.
2. Джанашиа, А. З. Основные направления практики медиации в США (на примере штата Северная Каролина) / А. З. Джанашиа // Вестник МГУ им. А. А. Кулешова. Серия «Педагогика. Психология. Методики». – 2015. – № 1. – С. 57-62.
3. Morgaret L. Mozes. Xalqaro arbitraj tamoyillari va amaliyoti". 2020, 39-bet
4. J. Pirie, Andrew (2000). Alternative dispute resolution : skills, science, and the law. Toronto, Ontario: Irwin Law.
5. Eunice CHUA, "The Future of International Mediated Settlement Agreements: Of Conventions, Challenges and Choices" (2015) Tan Pan Online: A Chinese-English Journal on Negotiation. Research Collection School of Law.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).